

**ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR TIBBIYOT TALABALARI
UCHUN INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISHNING FAOL USULI SIFATIDA**

Dilafruz Buranova

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

d.buranova5@gmail.com

Annotatsiya. *Zamonaviy texnologiyalar tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini faol o'zlashtirishning kuchli vositasi bo'lib, turli xildagi ta'lim olish usullari orqali ta'lim imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli platformalar, mobil ilovalar, onlayn kurslar, virtual simulyatorlar va turli xildagi interfaol o'quv o'yinlaridan foydalanish kasbiy tibbiy amaliyot uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, talabalarning motivatsiyasi va faolligini oshiradi.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, tibbiyot, talabalar, ingliz tili, usul.*

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'limning barcha sohalariga, shu jumladan tibbiyot oliy o'quv yurtlarida xorijiy tillarini o'qitishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatmoqda. Tibbiyot mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olayotgan talabalar tibbiy terminologiyani o'zlashtirar ekan, kasbiy muhitning globallashuv sharoitiga moslashuvi jarayonida ingliz tilida muloqot qilish zaruriyatiga duch kelishmoqda. Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini faol va interaktiv o'zlashtirish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi, bu esa o'quv jarayonini yanada qulay va samarali ravishda tashkil qilishni taqozo etadi.

METODLAR

Faol ta'limning samarali usullarini o'z ichiga olgan onlayn platformalar va mobil ilovalardan foydalanish talabalarga ingliz tilida o'qish, tinglash va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan interaktiv o'quv materiallari, video darsliklar, testlar va topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. *Duolingo*, *Memrise* yoki *Anki* kabi platformalar, shuningdek tibbiyotga ko'proq ixtisoslashgan manbalar (masalan, *Medline* yoki *PubMed*) talabalarga tibbiy lug'at va terminologiyani

rivojlantirishga, ilmiy maqolalar bilan ishlashga, klinik holatlar va hisobotlarni o'rganishga yordam beradi. Mobil ilovalar, o'z navbatida, talabalarga har qanday qulay vaqtda so'z va iboralarni o'rganish imkonini beradi, bu yesa yanada moslashuvchan va shaxsiy o'rganishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida talabalarga tibbiy amaliyotda duch kelishi mumkin bo'lgan real vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beruvchi *virtual simulyatsiyalar* “virtual bemorlar” bilan o'zaro aloqani o'z ichiga olishi mumkin, bu yerda talabalar tashxis qo'yish, davolash usullari, tibbiyot maslahatlari kabi faoliyatni ingliz tilida amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, *rolli o'yinlar* professional nutq va tibbiy terminologiyani mashq qilish uchun ajoyib usullardandir. Bunday o'yinlar davomida talabalar shifokorlar, bemorlar, hamshiralar va boshqa mutaxassislarning rollarini o'z zimmlariga olishlari mumkin, bu yesa haqiqiy tibbiy amaliyotda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tibbiy ingliz tilini o'qitishda *o'quv o'yinlaridan* foydalanish har xil bo'lishi mumkin: oddiy viktorinalar va tibbiy lug'at bilan testlardan tortib, talabalar virtual muhitda tibbiy muammolarni hal qiladigan murakkab simulyatsiyalargacha. *Video va audio kontent* ingliz tilini idrok yetish ko'nikmalarini yaxshilash uchun muhim vositaga aylanmoqda. Video darsliklar, podkastlar va konferensiya yozuvlari talabalarga tibbiy amaliyotda qo'llaniladigan haqiqiy tibbiy terminologiya va nutq konstruksiyalari bilan tanishish imkoniyatini beradi. *YouTube* kabi platformalar orqali talabalar tibbiy mavzudagi ma'ruzalarni, shifokorlar va tadqiqotchilar bilan suhbatlarni, shuningdek, yeshitish qobiliyatini yaxshilash va so'z boyligini to'ldirishga imkon beradigan klinik holatlarni tomosha qilishlari mumkin. *Tibbiy Podkast (The Medical Podcast)* yoki *MedCram* kabi podkastlar tibbiy amaliyot, tadqiqotlar va yangi tendensiyalar bilan bog'liq muhim ma'lumotlarga kirishni ta'minlaydi, bu yesa bilimlarni chuqurlashtirish va tibbiy ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

XULOSA

Zamonaviy texnologiyalar tibbiyot maktablarida ingliz tilini o'qitish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, o'quvchilarga tilni faol yegallash uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn platformalar, mobil ilovalar, virtual simulyatorlar,

gamifikatsiya va video kontentdan foydalanish nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki professional kompetensiyalarni yaxshilashga ham yordam beradi. Ushbu usullar o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va qulay qilar ekan, ingliz tilini yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi, talabalarni xalqaro tibbiyot muhitida muvaffaqiyatli kamol topishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Chappell, P., & Piggott, J. (2015). Simulations and Virtual Reality for Language Learning: A Case Study in Medical Education. *Medical Education*, 49(10), 1020-1026.
2. Prensky, M. (2001). *Digital Game-Based Learning*. McGraw-Hill.
3. Swales, J. M., & Feak, C. B. (2012). *Academic Writing for Graduate Students: Essential Tasks and Skills*. University of Michigan Press.
4. YouTube. (n.d.). *Medical English Lessons on YouTube*. Retrieved from <https://www.youtube.com>